

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

“MEN” – KONSEPSIYNING PSIXOLOGIK TALQINI

Alimov Xo'jageldi Mustafoevich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasи dotsenti,
psixologiya fanlari doktori

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.060>

Annotasiya. Maqolada “Men” – konsepsiyaning ta'rifi, G'arbdagi va Sharqdagi talqini, uning rivojlanish tarixi haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, “Men” – konsepsiyaning psixologik strukturasi ham keltirilgan. “Men” – konsepsiyasiga nisbatan gumanistik yondashuvga ham maqolada to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: “Men” – konsepsiya, “Men” – konsepsiya G'arbda va Sharqda, rivojlanish tarixi, psixologik struktura, gumanistik yondashuv, ustamovka.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ «Я» - КОНЦЕПЦИИ

Алимов Хужагелди Мустафоевич

Доцент кафедры «Психологии религии и педагогики» Международной исламской академии Узбекистана, доктор психологических наук

Аннотация. В статье представлена информация об определении понятия «Я»-концепции, его трактовке на Западе и на Востоке, истории его развития. Также представлена психологическая структура концепции «Я». В статье также рассматривается гуманистический подход к понятию «Я»-концепции.

Ключевые слова: «Я»-концепции, «Я»-концепции на Западе и на Востоке, история её развития, психологическая структура, гуманистический подход, установка.

PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF “I” - CONCEPTS

Alimov Khujageldi Mustafoevich

Associate Professor of the Department of Psychology of Religion and Pedagogy of the International Islamic Academy of Uzbekistan, Doctor of Psychology

Annotation. The article provides information about the definition of the concept of “I”-concept, its interpretation in the West and in the East, and the history of its development. The psychological structure of the concept of “I” is also presented. The article also discusses the humanistic approach to the concept of “I”-concept.

Key words: “I”-concept, “I”-concept in the West and in the East, the history of its development, psychological structure, humanistic approach, attitude.

Kirish. “Men” - konsepsiya ijtimoiy fanlardagi eng muhim, fundamental tushunchalardan biri hisoblanadi. ”Men” - konsepsiya deganda insonning o‘zi haqidagi tasavvuri yotadi. Odatda inson o‘zligini anglash bo‘yicha bosh qotirmaydi. Biroq “men” sezgilari atrofdagi olam va o‘zga kishilar bilan bo‘ladigan munosabatlarni qanday tushunishga bog‘liq holda shakllanadi. Inson har doim ham anglaydimi yoki yo‘qmi - baribir o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlari hayotining ajralmas va muhim qismi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili: “Men” tushunchasi Sharqda, ayniqsa tasavvuf ta’limotida o‘ta aniq va tushunarli qilib berilgan. Shu o‘rinda inson “men”i haqida J.Rumiyning quyidagi fikrlari mavjud. J. Rumiyning fikrlari umuman “Men” - konsepsiyanı tushunirishda qo‘l kelishini inobatga olgan holda uni batafsil berishga qaror qildik: “Rivoyat qiladilarki, bir podshoh o‘g‘lini hunarmandlar to‘piga qo‘sib qo‘yibdi. Ular bolaga turli bilimlardan, jumladan ilmi nujumdan dars berishibdi. Shoh o‘g‘li butunlay ahmoq bo‘lgani holda o‘ziga o‘rgatilgan narsalarni yaxshi egallab olibdi. Kunlardan bir kun podshoh uni imtihon qilmoq uchun hovuchiga uzugini berkitib, o‘g‘liga “Bunda ne bor?” debdi. Bola: “Qo‘lingdagi dumaloq, sariq va ichi bo‘sh narsadir” degach, hukmdor hayratda qolib: “Alomatlarini to‘g‘ri aytding, ismini ayt” deb buyuribdi. O‘g‘il: “G‘alvir bo‘lsa kerak” deb javob beribdi. Olgan tahsiling sharofati bilan

<http://interscience.uz>

№ 3-297

meni hayron etib, alomatlarini aniq aytding-u, lekin g‘alvirning hovuchga sig‘masligiga qanday qilib farosating yetmadi?” debdi. Xuddi shunday zamonamiz olimlari ham qilni qirq yoradilar, o‘zlariga bog‘liq bo‘limgan narsalarni juda yaxshi biladilar, ammo o‘ta muhim, o‘zlarini uchun qolgan barcha narsalardan yanada yaqin bo‘lganni, ya’ni o‘zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo‘lgan borliq bu – ularning “men”ligi”[3.26]. Yuqorida fikrlarga Ulug‘bek Hamdamov shunday sharh beradi: “Mavlono Rumiy insonni, avvalo, ko‘zini ochishga va ochilgan ko‘zlar bilan o‘z mohiyatiga nazar tashlashga undaydiki, bu bilan u valiy zot insonning o‘zi bir butun olam – kichik olam ekanligini uqtiradi”[3. 26].

E’tibor berilsa, Mavlono Rumiy inson “Men”i unga eng yaqin borliq bo‘lsa-da, o‘z “Men”i to‘g‘risida eng kam ma’lumotga egaligini ta’kidlayapti. Inson “Men”i tasavvuf ahli o‘rgangan va ta’limotining bir qismi sifatida kiritgan muhim komponent hisoblanadi. Dastavval “Men”- konsepsiyaning psixologik mohiyatini ochish lozim.

B.G.Mesheryakova va V.S.Zinchenkolar tomonidan tayyorlangan “Bolshoy psixologicheskiy slovar” kitobida “Men”-konsepsiya quyidagicha ta’rif beriladi: ”Men” konsepsiya (ingl. Self-concert) – insonning o‘zi haqidagi tasavvurlarining rivojlanayotgan tizimi bo‘lib, u quyidagilardan tashkil topadi: a) o‘zining jismoniy, intellektual, xarakterologik, ijtimoiy va h.k. xususiyatlarini anglash; b) o‘zini-o‘zi baholash; v) o‘z shaxsiga ta’sir qiladigan tashqi omillarning sub’ektiv idrok etilishi”[1.636].

“Men” - konsepsiysi 1950 yillarda fenomenologik, gumanistik psixologiya zamirida paydo bo‘ldi va rivojlandi. Bu psixologiyaning vakillari A.Maslou, K.Rojerslar bixevidoristlar va freydistlardan farqli o‘laroq yaxlit insoniy “Men”ni shaxs xatti harakatlari va rivojlanishining fundamental omili sifatida qarab chiqishga harakat qilishdilar. Mazkur tushunchaning paydo bo‘lishiga o‘zining sezilarli ta’sirini simvolik interaksionizm (Ch.Kuli, Dj.Mid) va identiklik konsepsiysi (E.Erikson) ko‘rsatdi. Biroq tan olib aytish kerakki, “Men” - konsepsiysi sohasidagi ilk nazariy tadqiqotlar U.Jeymsga taalluqlidir U.Jeyms shaxs “Men”ini (Self) anglaydigan “Men” ob’ekt sifatida (Me) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning mahsuli sifatida qaragan.

“Men” - konsepsiya D.Mosumoto o‘zining “Psixologiya i kultura” kitobida quyidagicha ta’rif beradi: “Men” sezgisi o‘ta muhim va o‘z fikrlarini, hissiyotlarini va harakatlarini aniqlash bilan hamda dunyon, jumladan shu dunyoda o‘zimizni va o‘zgalarni baholash bilan, shuningdek, o‘zga odamlar, joylar, ob’ektlar va hodisalar bilan aloqalarni baholash bilan uzviy bog‘liqdir”[2.55]. Soddarq qilib aytganda, “men” sezgilarimiz borlig‘imizning markazi hisoblanib, u anglanmagan, avtomatik holda har bir harakatimizga, fikrimizga va hissiyotimizga ta’sir qiladi.

Mashhur antropolog Klifford Gers “Men”ga quyidagicha ta’rif beradi: “Men” - chegaralangan, unikal, u yoki bu darajada integrallashgan, motivatsion va kognitiv koinot, ongning, emotsiyaning, hukmlarning va harakatlarning dinamik markazi, o‘ziga xos xarakterli yaxlitlikni tashkil qiluvchi va ham shunga o‘xshash o‘zga maqsadlarga, ham ijtimoiy va tabiiy muhitga qarshi turuvchi borliqdir”[1.55-56]. Bu ta’rif ham “Men”-konsepsiyaning muhim xususiyatlarini ochib berishligi bilan xarakterlanadi.

Ma’lumki, “Men” - konsepsiyan odatda o‘ziga yo‘naltirilgan ustanovkalarning to‘plami sifatida ham tushuntirish hollari mavjud. Bu yo‘nalish D.Uznadze rahbarligidagi gruziya psixologiya maktabining vakillariga xos yo‘nalish hisoblanadi. “Men”-konsepsiya ustanovka sifatida uchta komponentdan iborat: a) kognitiv (bilish) komponent – “men” obrazi bo‘lib, unga insonning o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlarning mazmuni kiradi; b) affektiv (hissiy-qadriy) komponent bo‘lib, unga o‘ziga munosabatda bo‘lishning emotsiyal tomonlari, o‘z shaxsi va faoliyatining alohida tomonlariga hissiy munosabat va h.k.; v) kanitiv (xatti-harakat) komponenti – xatti-harakatlarda kognitiv (bilish) va baholash komponentlarining yuzaga chiqishini xarakterlaydi.

Shu holatni tasavvuf nuqtai nazaridan turib sharhlash maqsadga muvofiq. Ma’lumki, o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlarning sifatini bilish o‘zini bilishning muhim bosqichi hisoblanadi. Muhimi ma’lum sifatning (masalan, baxillikning) yomon yoki yaxshi ekanligini bilish zarur. Bu ham o‘zini o‘zi bilishning bir darajasi hisoblanadi. Bu iymonli kishiga xos bo‘lgan qobiliyatdir. Bu holat haqida J.Rumiy shunday deb yozadi: “Madomiki, buni yomon narsa deb bilar ekansiz, demak, sizning qalb ko‘zingiz benazir va ulug‘ boshqa bir narsani ko‘rgan bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham ular ko‘zimizga xunuk va nuqsonli ko‘rinmoqda. Chuchuk suv ichib yurgan odamgina suvning sho‘r, tuzli ekanligini payqaydi. Ya’ni har qanday ashyoning sifati ziddi orqali ma’lum bo‘ladi. Ulug‘ Tangri sizning qalbingizni iymon nuri bilan bezagani uchun ham qalbingizga bu narsalar chirkin ko‘rinmoqda. Agar qalbingiz shunday bo‘limganda narsalarga bunday qaramasdingiz”[3.78]. Demak, kognitiv komponentning o‘rni ikki holatni taqozo

etayapti: birinchidan, insonning umuman o‘z sifatlarini bilishi, ikkinchidan, shu sifatlarning mohiyatini, ya’ni yaxshi – yomonligini bilishi.

Ta’kidlash joizki, bu o‘rinda bilishning o‘zi kamlik qiladi. Bilgan narsalariga uning munosabati ham zarur. Bu holat keyingi komponent bilan, ya’ni affektiv (hissiy-emotsional) komponent bilan bog‘liq. Inson bu bosqichda nuqsonlarga va fazilatlarga hissiy baho berishi, ya’ni o‘z nuqsonlaridan nafratlanishi, fazilatlaridan faxrlanishi zarur. Nafrat va faxr hissiy-emotsional olamning nasibalaridir. J.Rumiyning ta’kidlashicha, inson o‘zgalarning nuqsonidan qanday nafratlansa, o‘zining nuqsonidan ham shunday nafratlanmas ekan, komillikka qarab borishi mumkin emas. Bu haqda Rumiy shunday deb yozadi: “Inson o‘z kalligidan va chipqonidan irlganmas. U yarali qo‘lini bemalol ovqatga uzatadi, yalaydi. Bundan uning ko‘ngli aynimaydi. Ammo birovning qo‘lida kichik bir chipqon yoxud yara ko‘rsa, bas, ovqat yeyishdan to‘xtaydi, jirkanadi. Insondagi yomon fe’llar ham kollar va chipqonlarga o‘xshaydi. O‘zida bo‘lganida hech irlganmaydi, o‘zgada bo‘lsachi, jirkanadi, nafrat etadi”[3.31]. Rumiyning fikriga ko‘ra, insonlik saodati o‘z nuqsonlaridan jirkanish qobiliyatini paydo qilishda yotadi.

Xatti-harakatlar (xulq-atvor) bosqichida o‘zidagi o‘zi nafratlangan sifatni yo‘qotishga jiddu-jahd qiladi. Ma’lum sa’y-harakatlarning natijasi o‘laroq salbiy nuqsonning bartaraf etilishi, tabiiyki, qalbni poklashga olib keladi.

Aytish mumkinki, “Men”- konsepsiya insonni komillikka yetishiga xizmat qiluvchi psixologik mexanizm hisoblanadi.

Muhokama va xulosalar: “Men”- konsepsiya yaxlit tuzilma bo‘lib, uning barcha komponentlari nisbatan mustaqil ko‘rinsada, o‘zları bir-biri bilan o‘zaro aloqadadir. U angangan va anglanmagan ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. U o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlarning mazmuni, mazkur tasavvurlarning murakkabligi va ierarxiyasi, ularning shaxs uchun sub’ektiv ahamiyatliligi, shuningdek, ularning ichki jihatdan yaxlitligi va ketma ketligi, o‘zaro kelishuvchanligi, vaqt jihatdan turg‘unligi singari holatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Psixologiya fanida “Men”- konsepsiyaning murakkab tuzilishini turli xil talqin qilishadi. Masalan, R.Berns “Men”- konsepsiyani ierarxik tuzulma ko‘rinishida tasavvur qiladi. ”Men” - konsepsiyaning cho‘qqisida “global Men” turadi. U shaxsning o‘ziga nisbatan bo‘lgan ustanovkalarining to‘plamida konkretlashadi. Mazkur ustanovkalar turli xil modalliklarga ega bo‘ladi: 1) “real Men” (haqiqatda men menimcha qanday ko‘rinaman); 2) “ideal Men” (qanday bo‘lishni istar edim); 3) “ko‘zguli Men” (meni odamlar qanday tasavvur etishadilar). Bu modalliklardan har biri o‘zida qator jihatlarni mujassamlashtiradi – “jismoniy Men”, “aqliy Men”, “emotsional Men”[1.636].

“Ideal Men” bilan “real Men” o‘rtasidagi kelishmovchilik (farq) o‘z o‘zini baholash hissiyotlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va shaxs rivojlanishining muhim manbai hisoblanadi. Biroq ular o‘rtasidagi ahamiyatlari farq ichki shaxsiy ziddiyatlarni (nizo) keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa o‘z o‘rnida turli xil negativ, noxush kechinmalarni keltirib chiqaradi. Ma’lumki, shaxslararo nizolardan ham ko‘proq ichki shaxsiy nizolar shaxs hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki shaxsiy nizolarni bartaraf etishning yo‘li ular o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotishdan iboratdir. Shaxsning fikricha, uning haqiqatda o‘zgalarga qanday ko‘rinishi bilan haqiqatda o‘zgalarga qanday ko‘rinishi bilan o‘zi istagandek bo‘lishligi bir biriga qanchalik yaqinlashsa, ichki shaxsiy nizo shunchalik kamaya boradi.

“Men” masalasi gumanistik yondashuvga taalluqli. O‘z-o‘zini aktuallashtirish nazariyasi mavjud. Bu nazariyaning asoschilari J.Rojers va A. Masloular hisoblanishadi. Ularning fikricha, bolaning o‘zi to‘g‘risidagi tasavvuri, ya’ni “shaxsiy Men” – konsepsiyasi bolaning shaxsiy harakatlari bo‘lib, ular bolaning oldida paydo bo‘ladigan vaziyatlarga mos holda rivojlanadi. Demak, “Men”- konsepsiya o‘zga kishilar bilan muloqotda hosil qilinadigan tajriba bo‘lib, odamlarning uning xulq-atvoriga munosabatlari asosida rivojlanar ekan. Rojers tasavvurlarning bu tizimini “real Men” deb ataydi.

Insonda o‘zini ideal ko‘rinishda, boshqacha aytganda, kim bo‘lishni, qanday bo‘lishni istashi nuqtai nazaridan “Men”i mavjud bo‘lib, uni “ideal Men” deb atashadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

Большой психологический словарь. – СПб. Прайм – ЕВРОЗНАК, 2004. – С. 672

Моцумото Д. Психология и культура. – СПб: Прайм – ЕВРОЗНАК, 2002. – 416 с.

Румий Жалолиддин. Ичиндаги ичиндадир. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2003. – 199-б.